

AMERIKA MILLIY PARKLAR TIZIMI VA UNING AHAMIYATI

Eshmurodov Komil Alisherovich

SHDPI 4-BOSQICH TALABASI

**Annotatsiya :** Amerika Milliy Parklar tizimi (NPS) - tabiiy va madaniy merosni saqlash, tabiiy go'zallikni himoya qilish va mamlakatdagi ekoturizmni rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan muhim muassasadir. Ushbu tizim 1916 yilda tashkil etilgan va bugungi kunda 400 dan ortiq park, yodgorliklar va tarixiy joylarni o'z ichiga oladi. Milliy parklar jamiyat uchun nafaqat rekreatsiya va dam olish joylari, balki ilmiy tadqiqotlar, madaniy ta'lim va ekologik ta'sirlarni boshqarish markazlari sifatida ham ahamiyatlidir. Maqolada, Amerika Milliy Parklar tizimining ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik ahamiyati, shuningdek, uning tabiatni himoya qilishdagi roli tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Amerika Milliy Parklar tizimi, ekologik himoya, tabiiy meros, ekoturizm, madaniy yodgorliklar, tabiiy go'zallik, NPS, ekologik ta'sir, ilmiy tadqiqotlar, ijtimoiy ahamiyat.

**Abstract:** The National Park System of the United States (NPS) is an important institution established to preserve natural and cultural heritage, protect natural beauty, and promote ecotourism in the country. This system was founded in 1916 and today includes over 400 parks, monuments, and historical sites. National parks serve not only as recreational and leisure areas for the public but also as centers for scientific research, cultural education, and environmental impact management. The article analyzes the social, economic, and ecological significance of the U.S. National Park System, as well as its role in preserving nature.

**Keywords:** U.S. National Park System, ecological protection, natural heritage, ecotourism, cultural monuments, natural beauty, NPS, environmental impact, scientific research, social significance.

**Аннотация статьи:** Национальная парковая система США (NPS) — важная организация, созданная для сохранения природного и культурного наследия, защиты природной красоты и развития экотуризма в стране. Эта система была основана в 1916 году и сегодня включает более 400 парков, памятников и исторических объектов. Национальные парки служат не только местами для отдыха и рекреации, но и центрами для научных исследований, культурного образования и управления экологическими последствиями. В статье рассматриваются социальное, экономическое и экологическое значение Национальной парковой системы США, а также ее роль в охране природы.

**Ключевые слова:** Национальная парковая система США, экологическая защита, природное наследие, экотуризм, культурные памятники, природная красота, NPS, экологические последствия, научные исследования, социальное значение.

Amerika Milliy parklar tizimi bog'lar, yodgorliklar, qo'riqxonalar va tarixiy hududlarni o'z ichiga oladi. 1916-yilda tuzilgan federal agentlik muntazam o'zgarib boradi. Masalan, dastlab uning ixtiyorida bo'lgan 26 park hozir nazoratida emas. Makino orol parki kabi ba'zi bog'lar shtat ma'muriyatiga topshirilgan, ayrimlaridan esa boshqarish qimmatga tushgani bois voz kechilgan. Prezident Donald Tramp davlat qaramog'idagi parklar sonini kamaytirish harakatida, lekin u Oq uyga kelgandan beri to'rtta yangi park agentlik ixtiyoriga berildi.[1]

Indiana Dyuns Milliy parki Amerikaning eng yangi qo'riqxonasi, lekin u bu maqomni olish uchun juda uzoq kurashdi, deydi park boshqaruvchisi Pol Leybovitz.

"Nomni o'zgartirish 103 yil vaqt oldi. Uni milliy parkka aylantirish taklifi parklar xizmatining birinchi direktori Stefan Meyzer tomonidan 1916-yilda berilgan edi", - deydi u.[2]

Birinchi Jahon urushi paytida ko'l yoqasi po'lat zavodlari uchun olib qo'yildi. Indiana portini sanoatlashtirish davrida ham shu hol yuz berdi. Tabiat esa unib-o'sishdan to'xtamadi.

2017-2018-yillar Indiana qonunchilari parkni milliy qo'riqxonaga aylantirish talabini yana Kongress oldiga qo'ydi.2019-yil ishdan to'xtab qolgan hukumatni qayta ochish uchun qabul qilingan byudjet qonuni orasida bu loyiha ham tasdiqdan o'tdi.

"Bu ishning byudjet qonuniga kiritilgani biz uchun katta yutuq. Bu narsa ro'y berishini hech birimiz bilmagan edik. Bu biz uchun juda yoqimli sovg'a bo'ldi", - deydi turizm bo'yicha shtat rasmiysi Loreley Veymer.

Parkning milliy qo'riqxonaga aylanishi moliyaviy yordam olishda hech narsani o'zgartirmaydi, lekin uning maqomi mashhur Yellouston yoki Yosemite parklari bilan tenglashadi.[3]

Bill va Betti Smit 60 ta federal parkka borgan. Milliy qo'riqxonalar nomini olishi bilan ular Indiana Dyuns Milliy parkiga ham kelishdi.

"Asosan, qum tepaliklarini ko'rishni xohlayman. Bu yangi parkning o'ziga xos jihati shunda. So'qmoqlar tizimini ham ko'rishni istayman. Joyning ruhini his qilgim keladi", - deydi Bill Smit.

Parkda 483 kilometrli ko'l, har yili bir metrda siljiydigan tog'li qum tepaliklari, murakkab so'qmoqlar tizimi hamda Shimoliy Amerikaning noyob o'simliklari bor.

"Milliy parkka xos har doim nimadir bo'ladi. Go'zal, betakror. Milliy boyliklari, tabiiy go'zalligi va yovvoyi tabiati bilan qadri. Bu buyuk davlatni kechib chiqishning bir qismi bu", - deydi Bill Smit.

Parkka har yili 3,6 million sayyoh tashrif buyuradi. Milliy parkka aylanishi ortidan bu raqam yanada oshishi kutilyapti.[4]

Yellouston milliy parki - AQShning shimoliy-gʻarbidagi qoʻriqxonasi. Vayoming, Montana, Aydaxo shtatlarida qoyali togʻlarning oʻrta qismida, balandligi 2200–2500 m platoda joylashgan. Platoning atrofi balandligi 3000–3600 m li togʻ tizmalari bilan oʻralgan. Maydoni 9000 km<sup>2</sup>. Y.m.p. — mamlakatdagi dastlabki qoʻriqxonasi, 1872-yilda tashkil etilgan. Parkning 90% hududigina bargli qalin oʻrmon bilan qoplangan. Yellouston daryosida chuqurligi 360 m gacha, uzunligi 20 km li dara va balandligi 94 m gacha boʻlgan sharsharalar bor, balchiq vulkani va koʻl koʻp, eng kattasi Yellouston koʻli (maydoni 139 km<sup>2</sup>). 3 mingga yaqin geyzer bor. Yirik hayvonlardan qora ayiq (baribal), qoʻngʻir ayiq (grizli), bugʻu, ohu, antilopa, koyot, bizon va boshqalar. Qushlarning 200 ga yaqin turi mavjud. Yellouston milliy parkining tabiiy manzarali, yiliga 4,5 mln. gacha turist keladi. [5]

**Xulosa:** Amerika Milliy Parklar tizimi mamlakatning tabiiy manzaralari va madaniy merosini saqlashda muhim rol oʻynaydi. U nafaqat dam olish va turizm uchun qimmatli imkoniyatlar yaratadi, balki ilmiy tadqiqotlar, taʼlim va ekologik himoya sohalariga ham katta hissa qoʻshadi. Tabiiy resurslarni himoya qilish va barqaror turizmni rivojlantirish orqali NPS ekologik muvozanatni kelajak avlodlar uchun saqlashni taʼminlaydi. Tizimning jamiyat, iqtisodiyot va atrof-muhitga koʻrsatgan koʻp qirrali taʼsiri uning milliy boylik sifatidagi ahamiyatini yana bir bor taʼkidlaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. National Park Service. (2023). The National Park System: A Brief History. Retrieved from [www.nps.gov](http://www.nps.gov).
2. Biederman, D. (2018). Ecotourism and Sustainable Development: The National Park Experience in the United States. New York: Routledge.
3. Turner, J. R. (2019). The Environmental Impact of U.S. National Parks. *Environmental Studies Journal*, 45(3), 135-150.
4. Mellinger, D. E., & Smith, L. A. (2021). Cultural and Natural Heritage Preservation: The Role of the U.S. National Park Service. *Journal of Cultural Heritage*, 34(2), 42-58.
5. Hall, C. M., & Weiler, B. (2017). Tourism and Environmental Conservation in U.S. National Parks. *Tourism Management*, 29(1), 83-95.